BOJXONA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJIY TAJRIBANING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA KODEKSI DOIRASIDAGI YECHIMLAR

Ergashev Qobiljon Ernazarovich
Bojxona nazorati kafedrasi dotsenti, PhD, mayor
To‘ychiboyev Shohnur Dilshod o‘g‘li
4-kurs kursanti
O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi Bojxona qo‘mitasining
Bojxona instituti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: toychiboyevshohnur@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23350157

Annotatsiya: YeI, AQSh va Singapur bojxona nazorati modellarini (xavfni boshqarish, oldindan axborot, «Yagona darcha», VIO) qiyoslash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi doirasida joriy etish yechimlarini asoslash. **Metodologiya:** Funksional qiyosiy-huquqiy metod, kontent-tahlil va xalqaro ko‘rsatkichlar (LPI 2018/2023, Doing Business 2020, BMT UNTF 2017–2025) asosida benchmarking; «de-yure – de-fakto» tafovut ko‘rsatkichi taklif etildi. **Natijalar:** O‘zbekiston savdoni yengillashtirish choralarining 90,3 foizini rasman joriy etgan (AQSh bilan bir xil), biroq LPI 2023 «bojxona» komponenti bo‘yicha 2,6 ball bilan 74-o‘rinda (AQSh – 3,7; Singapur – 4,2); bu taxminan 50 foiz punktlik uzilishni bildiradi (AQShda – 23, Singapurda – 17). Sabablar: idoralararo hamkorlikning pastligi (66,7%), XBT qarorlarining shaffof emasligi, VIO imtiyozlarining zaifligi, qonunchilikning o‘zgaruvchanligi. Takliflar KPI bilan ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bojxona nazorati; xavfni boshqarish tizimi; oldindan axborot; «Yagona darcha»; vakolatli iqtisodiy operator; savdoni yengillashtirish; qiyosiy-huquqiy tahlil; Bojxona kodeksi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАМОЖЕННОГО КОНТРОЛЯ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И РЕШЕНИЯ В РАМКАХ ТАМОЖЕННОГО КОДЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: Сравнительный анализ моделей таможенного контроля ЕС, США и Сингапура (управление рисками, предварительная информация, «единое окно», УЭО) и обоснование решений по их внедрению в рамках Таможенного кодекса Республики Узбекистан. **Методология:** Функциональный сравнительно-правовой метод, контент-анализ и бенчмаркинг на основе международных индикаторов (LPI 2018/2023, Doing Business 2020, Глобальное обследование ООН 2017–2025); предложен показатель разрыва «де-юре – де-факто». **Результаты:** Узбекистан формально внедрил 90,3% мер по упрощению торговли (уровень США), однако по компоненту «таможня» LPI 2023 занимает 74-е место с 2,6 балла (США – 3,7; Сингапур – 4,2), что соответствует разрыву около 50 п.п. (США – 23, Сингапур – 17). Причины: слабая межведомственная координация (66,7%), непрозрачность решений СУР, ограниченные преимущества статуса УЭО, изменчивость законодательства. Предложения снабжены показателями результативности (KPI).

Ключевые слова: таможенный контроль; система управления рисками; предварительная информация; «единое окно»; уполномоченный экономический оператор; упрощение торговли; сравнительно-правовой анализ; Таможенный кодекс.

IMPROVING CUSTOMS CONTROL: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF FOREIGN PRACTICE AND SOLUTIONS WITHIN THE CUSTOMS CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The study compares the customs control models of the EU, the United States and Singapore (risk management, advance cargo information, Single Window, AEO) and substantiates solutions for implementing them within the Customs Code of the Republic of Uzbekistan. **Design/methodology:** Functional comparative law, content analysis and benchmarking based on international indicators (LPI 2018/2023, Doing Business 2020, UN Global Survey 2017–2025); a normalised de jure–de facto gap measure is proposed. **Findings:** Uzbekistan has formally implemented 90.3% of trade facilitation measures (on par with the United States), yet ranks 74th on the customs component of LPI 2023 with 2.6 points (United States 3.7; Singapore 4.2), implying a gap of about 50 percentage points (United States 23; Singapore 17). The gap stems from weak inter-agency cooperation (66.7%), opaque risk management decisions, limited AEO benefits and frequent legislative change. Proposals are matched with measurable KPIs.

Keywords: customs control; risk management system; advance cargo information; Single Window; authorised economic operator; trade facilitation; comparative legal analysis; Customs Code.

Bojxona nazorati ikki maqsad o‘rtasida muvozanat izlaydi: byudjet tushumlari va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hamda savdo ishtirokchilari uchun vaqt va xarajatlarni kamaytirish. Jo‘natishdan oldingi har bir qo‘shimcha kunlik kechikish savdo hajmini kamida 1 foizga qisqartiradi (Djankov va boshq., 2010). O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasi 2019–2025-yillarda 42,2 mlrd dollardan 81,2 mlrd dollarga oshdi (Statistika agentligi, 2026); shu sharoitda «hammani tekshirish» modeli na fiskal, na savdo maqsadlariga xizmat qiladi. 2025–2026-yillarda xavfni boshqarish, «yo‘laklar» tizimi va oldindan deklaratsiyalashga oid hujjatlar qabul qilindi, biroq xorijiy instrumentlarni milliy kodeks moddalari bilan bog‘lab, rasmiy joriy etish va amaldagi natija o‘rtasidagi tafovutni o‘lchaydigan qiyosiy-huquqiy tadqiqotlar yetishmaydi.

Tadqiqot maqsadi – YeI, AQSh va Singapur modellarini qiyoslash va ularni Bojxona kodeksi doirasida joriy etish yechimlarini asoslash. Savollar: **(TS1)** nazorat samaradorligi qaysi mexanizmlarga tayanadi? **(TS2)** ular Kodeks va 2025–2026-yillardagi hujjatlarda qay darajada mustahkamlangan? **(TS3)** rasmiy joriy etish va amaldagi natija o‘rtasidagi tafovutni nima izohlaydi va uni qanday qisqartirish mumkin? Gipoteza **(G1)**: asosiy cheklov normativ bazaning yetishmasligi emas, balki uni amalda izchil qo‘llash bilan bog‘liq.

Statistik skoring qoidaga asoslangan tanlovdan samaraliroq (Laporte, 2011), VIO maqomining qiymatini esa o‘zaro tan olish belgilaydi (Aigner, 2010). Xavfga asoslangan nazorat samarasi uning amalda joriy etilishiga bog‘liq (Hillberry va Zhang, 2018); xorijiy instrumentlarni milliy kodeks normalari bilan bog‘lab, de-yure va de-fakto ko‘rsatkichlarni birga tahlil qiluvchi tadqiqot esa mavjud emas.

Asosiy metod – funksional qiyosiy-huquqiy metod: institutlar nomi emas, bajaradigan funksiyasi bo‘yicha taqqoslanadi. Holatlar «eng farqli tizimlar» tamoyili asosida tanlandi: YeI, AQSh va Singapur (LPI 2023 da 1-o‘rin). Manbalar: lex.uz, EUR-Lex, eCFR hamda LPI 2023 («bojxona» komponenti, 1–5

ball – de-fakto idrok; Arvis va boshq., 2023), Doing Business 2020 (World Bank, 2020) va BMT UNTF 2025 (31 ta chorani joriy etish darajasi, % – de-yure ko‘rsatkich; UN Regional Commissions & UNCTAD, 2025). Tafovut quyidagicha hisoblandi:

$G_i = U_i - L_i^*, \quad L_i^* = (LPI_i - 1) / 4 \times 100 \quad (1)$

bu yerda G_i – tafovut (foiz punkt); U_i – UNTF 2025 bo‘yicha joriy etish darajasi (%); L_i^* – LPI 2023 «bojxona» balining 0–100 shkalaga keltirilgan qiymati. LPI idrokka asoslangan, deklaratsiya mikroma’lumotlari ochiq emas, shu bois natijalar sababiy emas, indikativ xarakterga ega, formula (1) esa evristik vositadir.

Yevro Ittifoq bojxona kodeksiga (952/2013-son Reglament) ko‘ra nazorat, tasodifiy tekshiruvlardan tashqari, asosan elektron ma’lumotlarga asoslangan xavf tahliliga tayanadi (46-modda); 127-modda oldindan deklaratsiyani (ENS), 38–39-moddalar VIO maqomini mustahkamlaydi (European Parliament & Council, 2013). Biroq a’zo davlatlarda jismoniy tekshiruvlar ulushi 1 foizdan kamidan 60 foizdan ko‘pigacha farq qilgan (European Court of Auditors, 2021). AQSh. Model «xabardor muvofiqlik» va «oqilona ehtiyotkorlik» tamoyillariga (import qiluvchi deklaratsiya to‘g‘riligi uchun javobgar) hamda oldindan axborot rejimiga tayanadi: dengiz yuklari uchun «24 soat» qoidasi, havo uchun 4 soat, temir yo‘l uchun 2 soat oldin (19 C.F.R. §§ 4.7, 122.48a, 123.91). Yagona elektron «darcha» – ACE tizimi (2014). Singapur. TradeNet (1989) davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirilib, 2018-yilda NTP bilan almashtirilgan; mamlakat LPI 2023 «bojxona» komponenti bo‘yicha 1-o‘rinda (4,2), UNTF 2025 bo‘yicha 96,8 foiz, «institutsional hamkorlik»da 100 foiz natijaga ega (Arvis va boshq., 2023; UN Regional Commissions & UNCTAD, 2025). Xulosa: tezlik to‘liq tekshiruvdan emas, oldindan ma’lumot, ishtirokchining javobgarligi, chiqarilgandan keyingi audit va idoralararo integratsiya uyg‘unligidan kelib chiqadi.

Bojxona kodeksining 21-moddasi nazoratni xavfni boshqarish tizimi (XBT) qo‘llanilgan chora-tadbirlar majmui deb belgilaydi, XBTga 29-bob (203–207-moddalar) bag‘ishlangan; 17-modda tashuvchiga tovar kelguniga qadar dastlabki axborot taqdim etish huquqini (qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda majburiyatini) beradi; VIO instituti 2022-yilda kiritilgan 7^1-moddada mustahkamlangan. PQ-122-son qarorga ko‘ra XBT xavf darajasini yo‘laklar kesimida belgilaydi: «yashil» (nazoratsiz), «sariq» (ko‘riksiz bir yoki bir necha shakl), «qizil» (to‘liq hajmda), «ko‘k» (tovar chiqarilgandan so‘ng). PF-250-son Farmon 2026-yildan oldindan deklaratsiyalashni (yig‘im 20 foizga kam) va «maslahatchi-auditor» tamoyilini joriy etdi; «Yangi O‘zbekiston bojxonasi – 2030» strategiyasi (PF-174) 2030-yilga rasmiylashtiruvning 60 foizini inson ishtirokisiz amalga oshirish va 500 ta VIO maqsadini qo‘ydi (UzA, 2026b).

LPI «bojxona» bali 2018-yildagi 2,10 dan 2,6 gacha oshgan, UNTF bo‘yicha rasmiy joriy etish 2017-yildagi 24,7 foizdan 2025-yilda 90,3 foizga ko‘tarilgan; yagona sezilarli bo‘shliq – «institutsional hamkorlik» (66,7%; AQShda – 88,9%, Singapurda – 100%). Biroq muammo bojxonaning o‘zida emas, butun chegara jarayonida: importda chegara va hujjat rasmiyatchiligi Doing Business 2020 bo‘yicha 261 soat (Singapurda – 36, AQShda – 10) (World Bank, 2020); 2023-yildagi tadqiqotga (TRS) ko‘ra importda umumiy chiqarish vaqti 3 kun 1 soat 17 daqiqa, bojxonaga tegishli qismi esa atigi 2 soat 5 daqiqa (taxminan 3 foiz) (Bojxona qo‘mitasi, 2025). (1) formula bo‘yicha tafovut O‘zbekiston uchun 90,3 − 40,0 = 50,3 f.p., AQSh uchun 90,3 − 67,5 = 22,8, Singapur uchun 96,8 − 80,0 = 16,8: rasmiy joriy etish AQShga teng bo‘lsa-da, amalda sezilish bo‘yicha tafovut ikki barobardan ortiq. Bu G1 gipotezasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tafovutni beshta muammo izohlaydi (1-jadval), bu choralarning hammasi ham avtomatik samaradorlikka aylanmasligi haqidagi xulosalarga mos (Hillberry va Zhang, 2018). **Birinchidan,** qonunchilik beqaror: Kodeksga 2018–2026-yillarda kamida oltita qonun bilan o‘zgartish kiritilgan,

2025–2026-yillarda esa besh yirik qonunosti hujjati qabul qilingan (OECD, 2023) (VMQ-700 dagi uch oylik kuchga kirish muddatini Kodeksda umumiy qoidaga aylantirish taklif etiladi). **Ikkinchidan,** XBT qarorlari shaffof emas: YeIda mezonlar maxfiy bo‘lsa-da, eshitilish va shikoyat huquqi kafolatlangan (UBK 22(6), 44-moddalar), O‘zbekistonda esa yo‘lak tanlovi sabablari va e’tiroz tartibi tartibga solinmagan. **Uchinchidan,** idoralararo integratsiya to‘liq emas: import vaqtining ~97 foizi bojxonadan tashqarida sarflanadi (Bojxona qo‘mitasi, 2025). **To‘rtinchidan,** VIO jozibadorligi past: 2023-yilda atigi 53 ta subyekt, YeIda esa import jo‘natmalarining uchdan ikki qismi VIO ishtirokida; maqom qiymatini o‘zaro tan olish belgilaydi (Aigner, 2010). **Beshinchidan,** sheriklik modeli to‘liq emas: AQShdagi ixtiyoriy oshkor qilish (prior disclosure) institutini Kodeksga kiritish lozim. Importda avtomatlashtirish past (13–16%; UzA, 2026a), bu statistik skoringga o‘tishni talab qiladi (Laporte, 2011).

1-jadval. Muammo – taklif – KPI matritsasi

Muammo (dalil)	Taklif (Bojxona kodeksi doirasida)	KPI (o‘lchov)
Qonunchilik beqarorligi (2025–2026-yillarda 5 ta yirik hujjat)	Tartib-taomillarga oid hujjatlar uchun ≥90 kunlik kuchga kirish muddati; konsolidatsiyalangan tushuntirishlar	≥90 kunlik muddat bilan qabul qilingan hujjatlar ulushi
XBT qarorlari shaffof emas	29-bobga: xavf turi kodi, yo‘lak qarorini 24 soatda ko‘rib chiqish, yillik XBT hisoboti	«Qizil» yo‘lak hit rate; e’tirozlarni ko‘rib chiqish muddati
Idoralararo integratsiya (UNTF 66,7%; import vaqtining ~97% bojxonadan tashqarida)	Idoralar uchun xizmat muddati standartlari; yagona xavf profillari	Importda umumiy chiqarish vaqti (TRS)
VIO maqomiga qiziqish past (2023: 53 ta)	Kafolatlangan imtiyozlar; to‘lovni kechiktirish; MRA	VIO soni; VIO va boshqa deklarantlar vaqt farqi
Sheriklik modeli to‘liq emas	Ixtiyoriy oshkor qilish instituti; «maslahatchi-auditor» tamoyilini Kodeksga kiritish	Ixtiyoriy tuzatish bilan yakunlangan auditlar ulushi
Importda avtomatlashtirish past (13–16%)	AI bo‘linmasi uchun ma’lumotlar sifati standarti; tasodifiy tekshiruvlarning qat’iy ulushi	Inson ishtirokisiz import deklaratsiyalari ulushi (2030-yilga 60%)

Manba: mualliflar ishlanmasi.

(TS1) YeI, AQSh va Singapurda nazorat samaradorligi «hammani tekshirish»ga emas, to‘g‘ri tanlashga asoslanadi: YeIda uyg‘unlashtirilgan xavf mezonlari va ma’lumotlar markazlashuvi, AQShda oldindan axborot va ishtirokchi javobgarligi, Singapurda to‘liq raqamlashtirish va idoralararo integratsiya orqali. **(TS2)** Bojxona kodeksi bu g‘oyalarning aksariyatini mustahkamlagan (21-modda, 29-bob; 17-modda; 7[1]-modda), 2025–2026-yillardagi hujjatlar esa ularni amaliyotga yaqinlashtirdi. **(TS3)** Rasmiy joriy etish va amaldagi samaradorlik o‘rtasida taxminan 50 foiz punktlik tafovut mavjud (AQShda – 23, Singapurda – 17), bu G1 ni tasdiqlaydi; uni qisqartirish uchun kamida 90 kunlik kuchga kirish muddati, XBT shaffofligi va tezkor e’tiroz tartibi, idoralararo xizmat standartlari, VIO uchun kafolatlangan imtiyozlar hamda ixtiyoriy oshkor qilish instituti taklif etildi (1-jadval).

Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. Aigner, S. (2010). Mutual recognition of authorised economic operators and security measures. World Customs Journal, 4(1).
2. Arvis, J.-F., Ojala, L., Shepherd, B., Ulybina, D., & Wiederer, C. (2023). Connecting to compete 2023: Trade logistics in an uncertain global economy. World Bank.
3. Bojxona qo‘mitasi [Customs Committee of the Republic of Uzbekistan]. (2025). Country presentation: Uzbekistan [Presentation, in Russian]. CAREC Customs Cooperation Committee.
4. Djankov, S., Freund, C., & Pham, C. S. (2010). Trading on time. The Review of Economics and Statistics, 92(1), 166–173.
5. European Court of Auditors. (2021). Customs controls: Insufficient harmonisation hampers EU financial interests (Special Report No. 04/2021).
6. European Parliament & Council of the European Union. (2013). Regulation (EU) No 952/2013 of 9 October 2013 laying down the Union Customs Code. Official Journal of the European Union, L 269, 1–101.
7. Hillberry, R., & Zhang, X. (2018). Policy and performance in customs: Evaluating the Trade Facilitation Agreement. Review of International Economics, 26(2), 438–480.
8. Laporte, B. (2011). Risk management systems: Using data mining in developing countries’ customs administrations. World Customs Journal, 5(1).
9. OECD. (2023). Trade facilitation in Central Asia. OECD Publishing.
10. Statistika agentligi [Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan]. (2026, January 22). 2025-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 81 mlrd dollardan oshdi [Foreign trade turnover of Uzbekistan exceeded USD 81 billion in 2025].
11. UN Regional Commissions & UNCTAD. (2025). Digital and sustainable trade facilitation: Global report 2025. United Nations.
12. UzA. (2026a, August 25). Inson omilisiz rasmiylashtirilgan deklaratsiyalar eksportda 42 foizni, importda esa 13 foizni tashkil etgan [Declarations processed without human involvement: 42% for exports and 13% for imports].
13. UzA. (2026b). O‘zbekiston bojxonasi strategiyasi: raqamli, tezkor va shaffoflik sari [Uzbekistan customs strategy: Towards digital, fast and transparent customs].
14. World Bank. (2020). Doing Business 2020: Economy profile – Uzbekistan. World Bank.